OLIY TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK JAMOALARIDAGI ISHCHANLIK, IJODIY VA MA’NAVIY XUSUSIYATLARI PSIXODIAGNOSTIKASI

Melibayeva R.N., Yunusaliyeva N.O.

ПСИХОДИАГНОСТИКА ДЕЛОВЫХ, ТВОРЧЕСКИХ И НРАВСТВЕННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕКТИВОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Мелибаева Р.Н., Юнусалиева Н.О.

PSYCHODIAGNOSTICS OF PROFESSIONAL, CREATIVE AND MORAL CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL TEAMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Melibayeva R.N., Yunusaliyeva N.O.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Эмпирически исследованы социально-психологические особенности деловой, творческой и нравственной атмосферы в педагогических коллективах высших образовательных учреждений, выявлена положительная взаимосвязь между данными качествами и общим социально-психологическим климатом. Кроме того, всесторонне проанализированы и интерпретированы различия в сформированных деловых, творческих и нравственных качествах педагогических коллективов в зависимости от направленности кафедры, стажа работы, учёной степени и других критериев.

Ключевые слова: *педагогический коллектив, социально-психологическая среда, деловые качества, творческие качества, нравственные качества, профессиональная активность, креативность, духовные характеристики, сплочённость коллектива.*

The article empirically examines the socio-psychological characteristics of the professional, creative, and moral climate within pedagogical teams of higher education institutions, and investigates the positive correlation between these qualities and the overall socio-psychological environment. In addition, the article provides a comprehensive analysis and interpretation of the differentiation of business, creative, and moral qualities formed within pedagogical teams according to department specialization, length of professional experience, academic degree, and other criteria.

Key words: *pedagogical team, socio-psychological environment, business qualities, creative qualities, moral qualities, professionalism, creativity, spiritual characteristics, team cohesion.*

XXI asr taraqqiyot davrida dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tomonida jamoaning emotsional imkoniyatlari, jamoa a’zolarining o‘zaro tushunishi va e’tirof etishi, jamoaning uyushganligi va jipsligi, jamoaning boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish, ish muhitiga ongli munosabat va mehnat unumdorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik sabablariga doir qator izlanishlar olib borilgan.

O‘zbekistonda oliy ta’lim va uning samaradorligini ta’minlash bo‘yicha psixologik tadqiqotlar soni kam bo‘lsada, ammo respublikaning bir qator psixologiya sohasidagi yetakchi olimlari tomonidan ijtimoiy psixologiya yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda M.G. Davletshin, E.G‘. G‘oziev, G‘.B. Shoumarov B. Qodirov, A.M. Jabborov, N.S. Safaev, D.N. Arziqulov, D.G. Muxamedova, R.Z. Gaynutdinov, V. Karimova, G‘. Shoumarov, Sh. Baratov, Z. Nishonova, R.N. Melibaeva va Sh.S. Shoyimovalar tomonidan ta’lim va tarbiya psixologiyasi, oliy ta’limning rivojlantirishning istiqbolini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan [3,7,10,12].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidan K. Angelovski, K.A. Alibaev, V.V. Bayluk, B.I. Zagvyazinskiy, A.I. Prigojina, V.A. Kan-Kalik, M.V. Klarin, O.G. Xomeriki i dr. I.N. Denisov. M.C. Diankina, M.E. Sachkova, V.A. Bryulin, A.E. Tasmuxanovalar pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ijtimoiy-psixologik muammolari tomonidan pedagogik jamoaning psixologik xususiyatlarini innovatsiyali ta’lim muhitida, pedagogik yangiliklar kiritish tipologiyasi, pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit, oliy ta’lim muassassi pedagogi nufuzining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari jamoasidagi sotsial-psixologik muhit diagnostikasi masalalari tadqiq etilgan [5,4,7,9,11,13].

Uzoq g‘arb psixologiyasida L. Clarke L., R.J. Hare-Mustin, J. Marecek, V. Hirdman, A. Kirsch, L.L. Lim, R.K. Unger tomonidan shaxs va tashkilotning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosiga doir izlanishlar olib borilgan [1,2,6,8].

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov va G.M. Manuylov metodikasi hamda Kraskel–Uollis mezoni qo‘llanildi. Natijalar ishchanlik va ijodiy fazilatlar ilmiy unvon va kafedra xususiyatiga ko‘ra farqlanishini, tajriba esa sezilarli omil emasligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari

Pedagogik jamoa shaxsning kamol topishi uchun muhim ijtimoiy-psixologik makon hisoblanadi. Uning ta’sirida jamiyat uchun muhim bo‘lgan yetuk kadrlar tayyorlanadi va shaxslar kamol topadi. Shunga ko‘ra pedagogik jamodagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning yaqqol ifodasi undagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhit ta’sirida shakllanadi. Ushbu holatni inobatga olib oliy ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoasidagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhit tadqiq etildi (1-jadval). Buning uchun N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov, G.M. Manuylovlarning “Jamoadagi ishbilarmonlik, ijodiy va ma’naviy muhitni o‘rganish” metodikasidan foydalanildi.

Ishbilarmonlik fazilatlari bo‘yicha eng yuqori rang ko‘rsatkichlari jismoniy madaniyat (308.25), maktabgacha ta’lim (275.19), matematika (232.27) va biologiya (219.18) kafedralarida aniqlandi. Ushbu kafedralarda mehnat faoliyati qat’iy rejalashtirish, tizimli o‘quv-uslubiy ishlar, yuqori intizom va aniq vazifalar taqsimoti bilan tavsiflanishi natijasida pedagoglar o‘rtasida ishbilarmonlik muhiti shakllangan. Shu bilan birga, ayrim kafedralarda past ko‘rsatkichlar (boshlang‘ich ta’lim – 128.18; texnologik ta’lim – 116.50) kuzatildi. Bu yo‘nalishlarda faoliyatning nisbatan erkin, ijodiy va metodik tarzda amalga oshirilishi ishbilarmonlik muhitining past darajada namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma'naviy muhitning kafedralar kesimidagi empirik ko'rsatkichlari (Kraskel – Uollis mezoni)

Shkalalar	n	Ishbilarmonlik fazilatlari	Ijodiy fazilatlar	Axloqiy fazilatlar
Psixologiya	36	182.13	208.90	186.04
Xorijiy tillar	113	163.87	158.43	159.00
Boshlan-ich ta'lim	83	128.18	120.27	132.26
Maktabgacha ta'lim	8	275.19	286.25	295.13
Geograifiya	11	153.91	139.18	161.59
Biologiya	11	219.18	203.86	191.32
Kimyo	7	218.29	252.79	256.64
Fizika va astronomiya	17	167.44	190.12	181.85
Matematika	15	232.27	238.90	221.20
Informatika	12	188.33	224.33	168.96
Jismoniy madaniyat	6	308.25	268.00	299.42
Musiqiy ta'lim	9	220.44	191.33	223.33
Tasviriy san'at	8	163.75	129.06	158.56
Texnologik ta'lim	3	116.50	173.83	145.67
H		52.237	67.256	51.951
P		0.000**	0.000**	0.000**

Izoh. * p<0.05; ** p<0.01.

Ijodiy fazilatlar shkalasida eng yuqori ko'rsatkichlar maktabgacha ta'lim (286.25), kimyo (252.79), matematika (238.90) va informatika (224.33) kafedralarida kuzatilgan. Bu jamoalarda innovatsion o'qitish texnologiyalari, pedagogik yangilanishlar, metodik izlanishlar va ilmiy tajribalarga bo'lgan talab yuqoriligi ijodiy muhitni kuchaytirgan.

Biroq boshlang'ich ta'lim (120.27), tasviriy san'at (129.06) va geografiya (139.18) kafedralarida ijodiy fazilatlar ko'rsatkichlari past bo'lib, bu mazkur jamoalarda ijodiy faollikning institutsional qo'llab-quvvatlanishi kamligi yoki metodik yondashuvlar an'anaviy tarzda tashkil etilishi bilan tushuntirilishi mumkin.

Axloqiy fazilatlar bo'yicha jismoniy madaniyat (299.42), maktabgacha ta'lim (295.13), kimyo (256.64) va musiqiy ta'lim (223.33) kafedralari yetakchilik qildi. Bu jamoalarda o'zaro hurmat, pedagogik odob, hamjihatlik va axloqiy o'zaro munosabatlarning mustahkam ekanligi ko'rinadi.

Past ko'rsatkichlar esa texnologik ta'lim (145.67), tasviriy san'at (158.56) va boshlang'ich ta'lim (132.26) kafedralarida qayd etilgan bo'lib, bu ichki jamoaviy muloqotda erkinlik yuqoriligi, mas'uliyatlilik va axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya etmaslik holatlari bilan izohlanishi mumkin.

Umuman, natijalari pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma'naviy muhit turli kafedralarda keskin farqlanishini ko'rsatadi. Tartibiy-me'yoriy tizimi kuchli bo'lgan yo'nalishlarda (kimyo, biologiya, matematika, jismoniy madaniyat) ishbilarmonlik va axloqiy muhit yuqori ekanligi aniqlandi. Ijodiylikka moyil yo'nalishlarda esa (tasviriy san'at, texnologiya ta'limi, geografiya) nizomiy nazoratning pastligi, erkin tarzdagi faoliyat va shaxsiy yondashuvlar ustuvorligi tufayli ko'rsatkichlar past bo'lishi kuzatildi.

Bu natijalar pedagogik jamoalardagi umumiy iqlim kafedra faoliyati xususiyati, metodik tizimi, rahbariyatning ushbu jamoaga nisbatan talabchanligi va ish madaniyati darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tahlilning davomini pedagogik jamoa a'zolarining ijtimoiy-psixologik tajribalari asosida amalga oshtiriladi (2-jadval).

Ishbilarmonlik fazilatlari bo'yicha olingan natijalar har bir tajriba guruhi o'rtasidagi o'rtacha rang ko'rsatkichlari nisbatan yaqinligini ko'rsatdi (178.65; 177.12; 154.37; 160.37; 162.22). Kraskel – Uollis mezoni bo'yicha H=3.162 va p=0.531 (p>0.05) ko'rsatkichlari mazkur farqning statistik jihatdan ahamiyatli emasligini anglatadi. Demak, pedagoglarning ishbilarmonlik potensiali mehnat staji bilan

to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas, balki shaxsiy tashkilotchanlik, xizmat vazifalarining talab darajasi va jamoaning ichki tartib-intizom tizimi kabi omillar bilan ko‘proq belgilanadi.

2-jadval

Pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhitning ijtimoiy-psixologik tajribasiga ko‘ra empirik ko‘rsatkichlari (Kraskel – Uollis mezoni)

Shkalalar	Tajriba - yillar	N	O‘rtacha rang	H	P
Ishbilarmonlik fazilatlari	1-5 yil	67	178.65	3.162	0.531
	6-10 yil	133	177.12		
	11-15 yil	47	154.37		
	16-20 yil	41	160.37		
	20 yildan yuqori	51	162.22		
	jami	339			
Ijodiy fazilatlar	1-5 yil	67	188.41	7.295	0.121
	6-10 yil	133	172.77		
	11-15 yil	47	170.41		
	16-20 yil	41	167.70		
	20 yildan yuqori	51	140.05		
	jami	339			
Axloqiy fazilatlar	1-5 yil	67	179.21	1.484	0.830
	6-10 yil	133	172.17		
	11-15 yil	47	162.82		
	16-20 yil	41	168.89		
	20 yildan yuqori	51	159.75		
	Jami	339			

Izoh. *p<0.05; ** p<0.01.

Ijodiy fazilatlar ko‘rsatkichilarida 1-5 yillik pedagoglar nisbatan yuqori rang (188.41), 20 yildan ortiq stajga ega guruh esa pastroq (140.05) ko‘rsatkichga egaligi qayd etildi. Biroq H=7.295 va p=0.121 (p>0.05) natijalari tajriba guruhlari o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatadi. Bu holat faoliyatning ilk bosqichlarida ijodiy faollik yuqoriroq namoyon bo‘lishi mumkinligini, ammo umumiy tendensiyada tajriba ijodiy qobiliyatning asosiy belgilovchisi emasligini anglatadi. Ijodiy fazilatlar ko‘proq shaxsiy kreativlik, kasbiy motivatsiya, tashkilotdagi ijodiy muhit va innovatsion jarayonlar mavjudligi bilan shakllanadi.

Axloqiy fazilatlar bo‘yicha ham tajriba davrlari kesimida katta tafovutlar kuzatilmadi (179.21; 172.17; 162.82; 168.89; 159.75). Kraskel–Uollis mezoni natijalari (H=1.484; p=0.830) guruhlar o‘rtasidagi farqning ahamiyatsizligini tasdiqlaydi. Pedagogik jamoalarda axloqiy madaniyat va kasbiy etika me’yorlari barqaror tizim sifatida faoliyat yuritar ekan, tajriba darajasi bu fazilatning shakllanishida u qadar muhim farqlarga olib kelmasligi mumkin.

Jadvaldagi barcha shkalalarda p>0.05 bo‘lgani sababli pedagoglarning tajribasi ishbilarmonlik, ijodiy va axloqiy fazilatlarning statistik jihatdan ahamiyatli darajada farqlanishiga olib kelmasligi aniqlandi. Demak, pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhit ko‘p hollarda tajribadan ko‘ra ichki uyushganlik, tashkilot madaniyati, rahbariyat uslubi va jamoaviy munosabatlar bilan belgilanadi.

Pedagogning mehnat tajribasi bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni tajriba yillari ishchanlik, ijodiy va axloqiy fazilatlarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmaydi. Bu ikki jadvalning solishtirmasidan ma’lum bo‘ldiki, muhit (kafedra yo‘nalishi) jamoadagi psixologik fazilatlar va mas’uliyat darajasiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib chiqdi; shaxsiy mehnat tajribasi esa pedagogning fazilatlarida keskin farq yaratuvchi omil sifatida namoyon bo‘lmadi: demak, pedagogik jamoalarda ijtimoiy-psixologik fazilatlar tajribadan ko‘ra kasbiy muhit, uyushganlik darajasi, me’yoriy talablar va rahbariyat uslubidan ko‘proq ta’sirlanadi.

Empirik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy fazilatlarning ijtimoiy-psixologik statusiga qarab farqlanishi aniqlandi.

Ishbilarmonlik fazilatlaridan eng yuqori ko‘rsatkichlar o‘qituvchi-stajerlar guruhida (188.13) qayd etildi. Fan doktori va professorlar (173.36) ham yuqori rangga ega, ammo nomzod, dotsent va PhD (157.87) hamda katta o‘qituvchi (146.48) guruhlari nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega. Kraskel–Uollis mezoni natijasi: H=9.757; p=0.021, p<0.05, ya’ni guruhlar o‘rtasida farq statistik jihatdan ahamiyatli (3-jadval).

Ijodiy fazilatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar fan doktori va professorlar orasida (194.65), shuning-

dek o‘qituvchi-stajerlar guruhida ham yuqori (176.61) rang qayd etildi. Nomzod, dotsent, PhD (147.56) va katta o‘qituvchi (155.18) guruhlari nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega. Kraskel – Uollis mezoni: H=16.271; p = 0.001; p<0.01, farqlar statistik jihatdan yuqori ahamiyatli.

3-jadval

Pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhitning ijtimoiy-psixologik statusiga ko‘ra empirik ko‘rsatkichlari (Kraskel – Uollis mezoni)

Shkalalar	Ilmiy unvoni	n	Sredniy rang	H	P
Ishbilarmonlik fazilatlari	fan doktori, professor	22	173.36	9.757	0,021*
	nomzod, dotsent, phd	133	157.87		
	katta o‘qituvchi	61	146.48		
	o‘qituvchi.stajer	118	188.13		
	jami	323			
Ijodiy fazilatlar	fan doktori, professor	22	194.65	16.271	0,001**
	nomzod, dotsent, phd	133	147.56		
	katta o‘qituvchi	61	155.18		
	o‘qituvchi.stajer	123	176.61		
	jami	339			
Axloqiy fazilatlar	fan doktori, professor	22	176.95	7.295	0.063
	nomzod, dotsent, phd	133	160.51		
	katta o‘qituvchi	61	146.90		
	o‘qituvchi.stajer	1123	184.27		
	jami	339			

Izoh. * p<0.05; ** p<0.01.

Axloqiy fazilatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar o‘qituvchi-stajerlarda (184.27), fan doktori va professorlarda (176.95), nomzod, dotsent va PhD (160.51), katta o‘qituvchi (146.90) guruhlari esa nisbatan past. Kraskel – Uollis mezoni: H=.295; p=0.063, demak farq statistik jihatdan ahamiyatli emas. Bu natijalar pedagogik jamoalardagi ishchanlik va ijodiy fazilatlar asosan ilmiy unvon va lavozim bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Axloqiy fazilatlar esa asosan jamoaviy muhit va ichki uyushganlik bilan belgilanadi.

Tahlilni chuqurlashtirish asosida pedagogik jamoalaridagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhitning shakllanganlik holati jamoaning umumiy ijtimoiy-psixologik muhit ko‘rsatkichi bilan korrelyatsiyasi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy muhitning umumiy ijtimoiy-psixologik muhit ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsiyasi

Shkalalar	Pedagogik jamoadagi psixologik muhit
Ishbilarmonlik fazilatlari	0.420*
Ijodiy fazilatlar	0.660**
Axloqiy fazilatlar	0,880**

Izoh. * p<0.05; ** p<0.01.

Shuningdek, pedagogik fazilatlar bilan ijtimoiy-psixologik muhit o‘rtasidagi korrelyatsiya quyidagicha qayd etildi: ishbilarmonlik fazilatlari**:** r=0.042, ijodiy fazilatlar: r=0.066 va **axloqiy fazilatlar**: r=0.088. Bunda yuqori uyushqoqlik, aloqalar o‘rnatilganlik, samimiylik va mas’uliyatlilik shkalalari ijtimoiy-psixologik muhit bilan sezilarli ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligi ko‘rsatildi. Bu jamoada yuqori uyushqoqlik va samimiylik, vazifalarni o‘z vaqtida bajarish va pedagoglar orasida ishonchni shakllantirish bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Xulosa

1. Olingan natijalar asosida pedagogik jamoalarda ishbilarmonlik fazilatlari eng yuqori ko‘rsatkichlar jismoniy madaniyat, maktabgacha ta’lim va matematika yo‘nalishlarida qayd etildi. Ijodiy fazilatlar esa maktabgacha ta’lim, kimyo, matematika va informatika kafedralarida yuqori ko’rsatkichlarda aks etgan bu esa jamoalarda innovatsion o‘qitish texnologiyalari, pedagogik yangilanishlar, metodik izlanishlar va ilmiy tajribalarga bo‘lgan talabni yuqoriligi ijodiy muhitni kuchaytirgan.

2. Jamoalardagi eng yuqori ko’rsatkichlarni axloqiy fazilatlar shkalsida jismoniy madaniyat, maktabgacha ta’lim va kimyo kafedralarida kuzatiladiganini ko’rishimiz mumkin. Bu jamoalarda o‘zaro hurmat, pedagogik odob, hamjihatlik va axloqiy o‘zaro munosabatlarning mustahkam ekanligi ko‘rinadi.

3. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik jamoalardagi ishchanlik, ijodiy va ma’naviy fazilatlar kafedra yo‘nalishi, metodik tizim, rahbariyat uslubi va jamoaning ichki uyushganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. Ангеловски К, Алибаев КА, Байлук ВВ. Эмпирические исследования педагогических коллективов в странах СНГ. Минск, 2014.
2. Брюлин ВА, Тасмуксанова АЕ. Педагогические инновации и социально-психологический климат в учебных коллективах. СПб 2017.
3. Давлетшин МГ, Гозиев ЭГ, Шумаров ГБ. Олий талимда иджтимой-психолог тадкикотлар. Тошкент 2015.
4. Денисов ИН, Дианкина МС, Сачкова МЕ. Педагогические инновации и социально-психологический климат в учебных коллективах. М 2018.
5. Козлов ВВ. Педагогика, общественная психология. СПб 2005.
6. Мануйлов Г. Социально-психологическая среда и педагогический коллектив. М 2002.
7. Мелибаева РН. Из истории вопроса экспериментального исследования мышления в трудах психологов советского периода. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. 2018:125-127.
8. Пригожина АИ, Кан-Калик ВА, Кларин МВ. Лидерство и сплоченность команды в высших учебных заведениях. М 2016.
9. Фетискин НП. Методология изучения деловой и творческой среды в команде. М Просвещение, 2000.
10. Юнусалиева НО. Олий таълим муассасаси педагогик жамоаси ижтимоий-психологик феномен сифатида. Psixologiya ilmiy jurnali. 2025;1:141-4. ISSN 2181-5291.
11. Clarke L, Hare-Mustin RJ, Marecek J, Hirdman V. Social-psychological characteristics of organizational teams. NY 2010.
12. Qodirov B, Jabborov AM, Safaev NS. Psychology of education and team effectiveness in higher education. Toshkent 2019.
13. Yunusaliyeva N. Pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy jurnal. 2024;11:100-2.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK JAMOALARIDAGI ISHCHANLIK, IJODIY VA MA'NAVIY XUSUSIYATLARI PSIXODIAGNOSTIKASI

Melibayeva R.N., Yunusaliyeva N.O.

Maqolada oliy ta'lim muassasalari pedagogik jamoalaridagi ishchanlik, ijodiy va ma'naviy muhitning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari empirik jihatdan o'rganilgan hsmda fazilatlar bilan umumiy ijtimoiy-psixologik muhit o'rtasida ijobiy bog'liqlik tadqiq etilgan. Bundan tashqari maqolada pedagogik jamoalarda shakllangan ishbilarmonlik, ijodiy va axloqiy fazilatlarning kafedra yo'nalishi, mehnat staji, ilmiy unvonga va boshqa mezonlarga ko'ra farqlanishini atroflicha tahlil va talqin etilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik jamoa, ijtimoiy-psixologik muhit, ishbilarmonlik fazilatlari, ijodiy fazilatlar, axloqiy fazilatlar, ishchanlik, ijodiylik, manaviy hususiystlar, jamoa uyushganligi.*

Mualliflar haqida ma'lumot

Melibayeva Ruzaxon Nasirovna, TDTU pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professori (DSc). Tel: +998909277534, e-mail: ruzakhon7534@gmail.com, https://orcid.org/0000-0002-4470-3029

Yunusaliyeva Nargiza Ortiqboy qizi, Qo'qon davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrasi asistenti. Tel: +998976251091, yunusaliyeva12@gmail.com. https://orcid.org/0009-0002-2515-704X